

**YURIDIK MATNLARDAGI INTERTEKSTUAL BOG‘LANISHLARNI
TARJIMADA IFODALASH*****G‘ofurova Zuhra****ToshDO‘TAU talabasi***Annotatsiya**

Maqolada yuridik matnlardagi intertekstual bog‘lanishlarning shakllari, ularning til va madaniyatlararo tarjimada qanday aks etishi, shuningdek, o‘zbek tilidagi ilmiy manbalar asosida mazkur bog‘lanishlarning lingvistik, semantik va huquqiy talablari yoritiladi. Yuridik matnlardagi referensial aloqalar, terminologik izchillik va metalingvistik birliklarning tarjimada o‘zgarishi, shuningdek, tarjimonda uchraydigan asosiy muammolar tahlil etiladi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar – M. Sheraliyeva (2025), F.Vohidova (2025), N. Masadikova (2023) va boshqalar ishlaridagi nazariy qarashlar asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: *intertekstuality, yuridik matn, yuridik tarjima, lingvomadaniy tahlil, terminologik izchillik, metalingvistik struktura.*

Abstract

The article examines the forms of intertextual relations in legal texts and their manifestations in translation. It highlights the linguistic, semantic and legal aspects of preserving intertextual links in cross-lingual legal communication. Relying on Uzbek scientific sources – Sheraliyeva (2025), Vohidova (2025), Masadikova (2023) – the study outlines the main strategies for maintaining terminological stability referential connections and structural coherence during translation.

Keywords: *intertextuality, legal text, legal translation, linguocultural analysis, terminological consistency, metalinguistic structure.*

Абстракт

Статья рассматривает формы интертекстуальных связей в юридических текстах и их проявления в процессе перевода. Подчёркиваются лингвистические и семантические и правовые аспекты сохранения интертекстуальных связей в межъязыковой юридической коммуникации. Опираясь на узбекские научные источники – Шералиева (2025), Вахидова (2025), Масадикова (2023) – исследование определяет основные стратегии поддержания терминологической стабильности при переводе.

Ключевых слов: *интертекстуальность, юридический текст, юридический перевод, лингвокультурный анализ, терминологическая последовательность, металингвистическая структура.*

Kirish

Yuridik matnlar boshqa matn turidan farqli ravishda qat'iy me'yoriy tizimga ega bo'lib, ularning mazmuni ko'pincha boshqa huquqiy manbalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlik ilmiy adabiyotlarda intertekstual bog'lanish deb yuritiladi. M. Sheraliyeva o'zining "Yuridik matn tarjimasining lingvistik va lingvomadaniy tadqiqi" [2025] nomli maqolasida yuridik matnlarni tarjima qilishda intertekstual iqtiboslar terminlar va normativ havolalar tarjimaning asosiy tayanchi ekanini ta'kidlaydi.

Shuningdek, F. Vohidova [Yuridik terminlarning tarjimadagi muammolari va lingvosemantik xususiyatlari; 2025] yuridik terminlar bir necha darajadagi semantik yuklamaga ega bo'lgani uchun ularni tarjimada izchil qo'llash intertekstual izchillikni ta'minlashini ko'rsatadi. N. Masadikova [Ingliz va o'zbek tillarida huquqiy terminlardan foydalanishning nazariy asoslari; 2023] esa yuridik terminlarning ingliz va o'zbek tillaridagi o'ziga xos ta'rif va vazifalarini ko'rib chiqib, ularni tarjima qilishda funksional moslik prinsipini zarur deb hisoblaydi. Maqolaning maqsadi – yuridik matnlardagi intertekstual bog'lanishlarning turlarini, ularning tarjimada ifodalanish muammolarini va o'zbek ilmiy manbalari asosida samarali strategiyalarni yoritishdir.

Yuridik matnlarda intertekstual bog'lanishlarning nazariy asoslari.

Intertekstuality tushunchasi Julia Kristeva tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, yuridik matnlarda bu tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi. Yuridik matnlar o'zlari istagancha so'z tanlay olmaydi: ular vazirlik qarorlari, kodekslar, xalqaro konventsiyalar, qonun moddalari va boshqa hujjatlar bilan chambarchas bog'liq. Sheraliyeva [Yuridik matn tarjimasining lingvistik va lingvomadaniy tadqiqi; 2025] yuridik matndagi intertekstual bog'lanishlarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Referensial intertekstuality – boshqa hujjatlarga havola: "Mazkur modda Fuqarolik kodeksining 12-moddasiga binoan qo'llaniladi" kabi.
2. Terminologik intertekstuality – barqaror, huquqiy ahamiyatga ega terminlar orqali bog'lanish: "yuridik shaxs", "vakolatli organ", "majburiyat".
3. Metalingvistik intertekstuality – hujjatlarga xos struktura, bo'limlar va formal birliklar.

Bu uchala tur tarjimaning ham lingvistik, ham huquqiy sifatiga ta'sir qiladi.

Yuridik matnlarda terminologik izchillik va uning tarjimadagi o'рни.

Terminologik izchillik – huquqiy matn tarjimasining markaziy tamoyillaridan biridir. "Yuridik terminlarning tarjimadagi muammolari va lingvosemantik xususiyatlari" [F. Vohidova; 2025] nomli maqolada yozilishicha: " Yuridik terminlar bir-biriga bog'langan mantiqiy tizimni tashkil qiladi va ularning har biri huquqiy kategoriya

sifatida qat'iy belgilangan. Shuning uchun tarjimada ularni sinonimlash yoki erkin almashtirish mumkin emas". Bu fikr intertekstual bog'lanishning aynan terminologik shakliga taaluqlidir. Masalan, legal entity ingliz tilida aynan "yuridik shaxs"ni ifodalaydi. "Huquqiy tashkilot" yoki "huquqli jismoniy shaxs" kabi erkin variantlar noaniqlikka olib keladi. "Ingliz va o'zbek tillarida huquqiy terminlardan foydalanishning nazariy asoslari" [N. Masadikova; 2023] maqolada esa yuridik terminlar ikki guruhga ajratiladi:

1. To'liq ekvivalentga ega terminlar: contract – shartnoma, obligation – majburiyat.
2. Madaniy ekvivalenti yo'q terminlar: tort, injunction, equity, escrow.

Bunday hollarda tarjima strategiyasi intertekstual bog'lanishni saqlab qolgan holda qo'llanishi kerak.

Referensial intertekstual bog'lanishlar va ularning tarjimasi. Referensial bog'lanishlar yuridik matnlardagi eng aniq intertekstual aloqadir. M. Sheraliyeva o'zining "Yuridik matn tarjimasining lingvistik va lingvomadaniy tadqiqi" [2025] nomli maqolasida ta'kidlashicha: "Bir huquqiy norma boshqa normaga tayangan holda o'zining mazmuni va kuchini hosil qiladi. Tarjimada havola buzilsa, huquqiy mazmun ham o'zgaradi". Masalan, inglizcha matn: This agreement shall be interpreted in accordance with Article 14 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. To'g'ri tarjima: Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga muvofiq talqin qilinadi. Agar tarjimon "14-bandga ko'ra", "14-qoidasiga ko'ra" deb bersa, intertekstual havola noto'g'ri bo'ladi. Chunki kodeksda "band" emas, "modda" ishlatiladi. Bu – terminologik va referensial intertekstualityning kesishgan qismi hisoblanadi.

Metalingvistik intertekstuality: huquqiy matn tuzilmasi va tarjima. Yuridik matnlar o'zining struktura intertekstuality bilan ajralib turadi. Masalan, Preambula Definitions General Provisions Articles Clauses Final Provisions O'zbek tadqiqotchisi Z. Abdurahmonova ko'rsatganidek: "Yuridik matnning sintaktik va kompozitsion shakli uning mazmuni kabi muhim. Tarjima jarayonida strukturaning buzilishi hujjatning yuridik kuchini pasaytiradi". Shu sababli tarjimon matnning tartibini, raqamlanishini, modda va bandlar izchilligini, rasmiy-huquqiy uslubni o'zgartirmasdan qayta yaratishi lozim.

Tarjimada intertekstual bog'lanishlarni saqlash strategiyalari. Yuqoridagi manbalarga hamda xalqaro yondashuvlarga asoslangan holda quyidagi strategiyalar shakllantiriladi:

1. Terminologik barqarorlik strategiyasi – rasmiy lug'atlar va kodekslar asosida terminlar bir xil qo'llaniladi. Sinonimlardan foydalanilmaydi.

2. Referensial aniqlik strategiyasi – hujjat nomi, modda raqami, bo‘lim nomi aynan beriladi. Agar tarjima tilida mos hujjat bo‘lmasa, izohli tarjima qilinadi.
3. Strukturaviy moslik strategiyasi – hujjatning bo‘limlari tarjimada o‘z nomi bilan ko‘chiriladi. Raqam, band va moddalar ketma-ketligi saqlanadi.
4. Lingvomadaniy kompetensiya strategiyasi – madaniy jihatdan mos kelmaydigan tushunchalarga izoh beriladi. Huquqiy tizimlar farqi inobatga olinadi.
5. Normativ moslik strategiyasi – tarjimon muloqot qilayotgan davlat (yoki tashkilot) huquqiy tizimini yaxshi bilishi kerak.

Xulosa

Intertekstual bog‘lanishlar vujudga kelgan yuridik matnlar – hujjatning ma‘nosi, vazifasi va yuridik kuchini belgilovchi eng muhim lingvistik unsurlardan biri. Yuridik tarjimonda bu bog‘lanishlarni buzmasdan ko‘chirish tarjimonning malaka va bilim darajasiga bog‘liq. O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari (Sheraliyeva, Vohidova, Masadikova va boshqalar) ko‘rsatadiki, yuridik terminlarning izchil qo‘llanishi, referensial bog‘lanishlarning buzilmasligi, hujjat strukturasi saqlanishi, madaniy-huquqiy moslikning ta‘minlanishi yuridik tarjimaning sifat mezonlaridir. Shu bois intertekstual bog‘lanishlarni tarjimada to‘liq aks ettirish – nafaqat lingvistik balki huquqiy javobgarlik talab qiladigan amaliyotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheraliyeva M. X (2025). Yuridik matn tarjimasining lingvistik va lingvomadaniy tadqiqi. *International Journal of Science and Technology*.
2. Asadov, M.T. 2021. “Fransuz-o‘zbek tarjimachiligi istiqbollari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1 (3): 125-134.
3. Vohidova F.M (2025). Yuridik terminlarning tarjimadagi muammolari va lingvosemantik xususiyatlari. *IQRO INDEXING*.
4. Masadikova N. M (2023). Ingliz va o‘zbek tillarida huquqiy terminlardan foydalanishning nazariy asoslari. *Modern Education and Development*.
5. Abdurahmonova Z. Yo (2024). Yuridik terminlarning lingvistik xususiyatlari va ularni o‘rganishning dolzarbligi. *Universal Publishers*.
6. Mamarasulova, Gulnoz. "Geopolitical Discourse In Translation." *International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 4. 2025.